

TARBIYASIZLIK-NAJOTSIZ YO'L

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2 kurs pedagogika

yo'nalishi talabasi Davlatova Munira Talqin qizi

muniradavlatova777@gmail.com

Annotatsiya: Zamonamiz rivojlanib, ilm-fan yuksalib borayotgan bir davrda insoniyat hayotining poydevori bo'lgan axloq, odob va tarbiyaning ahamiyati yana-da ortib bormoqda. Shu o'rinda xalqimizning chuqur ma'noga ega bo'lgan "Tarbiyasiz ilm – najotsiz yo'l" degan hikmatli iborasi bejizga aytilmaganini anglab yetamiz. Ilm – bu insonni zulmatdan nurga olib chiqadigan kuchdir. Ammo bu kuch faqatgina ma'naviyat va tarbiya bilan uyg'unlashgandagina ijobiy natija beradi. Tarbiyasiz o'rgangan ilm esa, afsuski, insonni najot sari emas, halokat sari yetaklashi mumkin. Bunday odam bilimini yaxshi ishlarga emas, balki zararli maqsadlarga sarflash ehtimoli yuqori bo'ladi.

Kalit so'zlar: Ilm, fan, tarbiya, ma'naviyat, inson, najot, axloq, odob, yosh avlod, farzand, ota-ona, voyaga yetish.

Abstract: In an era of development and the rise of science, the importance of morality, decency and education, which are the foundations of human life, is increasing. At this point, we realize that the wise saying of our people, which has a deep meaning: "Knowledge without education is a path without salvation," was not said in vain. Knowledge is the power that leads a person from darkness to light. However, this power gives positive results only when combined with spirituality and education. Unfortunately, knowledge learned without education can lead a person not to salvation, but to destruction. Such a person is more likely to spend his knowledge not for good deeds, but for harmful purposes.

Keywords: Science, education, spirituality, human, salvation, morality,

etiquette, young generation, child, parents, adulthood.

Аннотация: *В эпоху развития и расцвета науки возрастает значение нравственности, порядочности и образования, являющихся основами человеческой жизни. В этот момент мы осознаём, что мудрое изречение нашего народа, имеющее глубокий смысл: «Знание без образования – путь без спасения», было произнесено не напрасно. Знание – это сила, ведущая человека из тьмы к свету. Однако эта сила даёт положительные результаты только в сочетании с духовностью и образованием. К сожалению, знания, полученные без образования, могут привести человека не к спасению, а к гибели. Такой человек, скорее всего, потратит свои знания не на добрые дела, а во вред.*

Ключевые слова: *Наука, образование, духовность, человек, спасение, нравственность, этикет, молодое поколение, ребенок, родители, взрослые*

Tarbiya – har qanday bilimning mezoni. Zamonamizda ilm olish imkoniyatlari ko'paygan, ammo tarbiyasiz bilim – jamiyat uchun xavfli qurolga aylanishi mumkin. Shu bois, har bir ilm egasi avvalo odob-axloqni, halollikni, insoniylikni o'ziga shior qilishi lozim. Ilm bilan tarbiya bir-birini to'ldiradigan ikki qanotdir. Ulardan birining bo'lmasligi – insonni najotsiz yo'lga boshlaydi.

Tarbiyaning yo'qligi nafaqat odamning fe'l-atvorida, balki uning jamiyatdagi tutgan o'rnida ham aks etadi. Misol uchun, bir inson tibbiyot sohasida yetuk olim bo'lishi mumkin, ammo agar u vijdotsiz, manfaatparast yoki tarbiyasiz bo'lsa, o'z bilimidan insonlarga yordam berish uchun emas, balki ularni aldash, zarar yetkazish uchun foydalanadi. Bu esa ilmning mohiyatiga zid holdir. Yaxshi tarbiya ko'rgan inson nafaqat ilimli bo'ladi, balki o'z bilimidan to'g'ri foydalanishni, odob saqlashni, boshqalarga hurmat ko'rsatishni ham biladi. Buyuk allomalarimiz, masalan, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Al-Beruniy kabi zotlar nafaqat chuqur bilimga, balki yuksak tarbiyada ham namuna bo'lishgan. Ular ilmni yurakdan sevgan, uni insoniyatga

xizmat qildirish uchun ishlatganlar. Tarbiya va ta'limni bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

Komil insonni voyaga yetkazishda oila va jamiyatni o'mi uni tarbiyadagi uzviyligi, uzluksizlik asosida amalga oshishi bu yaxlit bir qonuniy jarayondir. Oila pedagogikasi jamiyatning shaxs tarbiyasiga doir muhim davlat siyosatidagi ustuvor vazifalarini mukammal bajarishida xizmat qiladi, ta'lim-tarbiyaga doir bilimlar mushtarak holda jamlab farzand tarbiyasiga doir tartib, qoidalarining sinovdan o'tkazuvchi va amalda tatbiq qiluvchi ota-onaning faoliyatidir. Oila va undagi tarbiya usul, vosita va omillari ko'proq yozma pandnomalarda; Kaykovusni «Qobusnoma», «Saodat-noma, Zahiriddin Muhammad Boburning Boburnomasi, To'ti shoxnoma», «Odobnoma kabilarda oila muammosiga doir masalalar ilmiy va nazariy, amaliy jihatdan asoslab berilgan. Oila tarbiyasidagi bolalar hayotini to'g'ri uyushtirish, ularni vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanishning asosiy ga-rovi ekanligini ota-onalar o'z farzandlariga uqtirishlari lozim. Oila tarbiyasi masalalari bo'yicha maxsus Abu Ali Ibn Sino Tadbir al-manozil nomli asarini yozgan. Unda olim ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi vazifalarini yoritgan. Asarda oilada ota-onaning vazifasi va burchiga va oila munosabat-lariga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onalarning oilada mehnat-sevarligi bilan farzandlarini ham kasb va hunarga o'rgatish borasida muhim fikrlar bayon etadi.

Ibn Sino tarbiyaviy qarashlarida oila va oilaviy masa-lalariga keng o'rin berilgan. Ota oilada o'z farzandlariga har tomonlama yurish-turishda, nutq odobida, so'z madaniyatida o'zaro muomala jarayonida eng muhimi amaliy ish faoliyatida to'g'rilik va haqqoniylik, samimiylikka namuna bo'lmog'i kerak. Oilada farzand tarbiyasining to'g'ri yo'lga qo'yishning asosiy vositasi uning

ma'naviy olamida e'tiqodni shakllantirish, deb hisob-lagan edi olim.

Yusuf Xos Hojib «Qudatg'u bilig asarida oilaviy maishiy turmush muammolariga ham katta e'tibor beradi. U kishi-larni uylanib, oila qurishidan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zarur vazifalarini birma bir bayon etadi. Ota-onalar nazoratida bo'lgan bolaning mas'uliyat hissi rivoj topadi. Shu sababli ham bola tarbiyasida ota-onaning mavqeyi alohida ahamiyat-ga egadir. Ular tanlagan to'g'ri yo'l farzandlarining kelajagi, kamoloti uchun nihoyatda muhim-dir deb takidlaydi.

Tarbiyaviy vositaga ega bo'lgan Qur'on oyatlari muhim ahamiyatga ega. Ularda ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabat haqida bolalarni tarbiyalayotgan ota-ona nimaga intilishi haqida, shuningdek ular etmoqchi bo'lgan maqsadlar ham aniq belgilab qo'yilgan. Qur'on maqsad usul onlar hayotining maqsad uni va maqsadi haqidagi qarashlariga katta ta'sir ko'rsatgan va uning g'oyalari musulmon halqlarining madaniyatidan chuqur joy olganlar hamda xalq pedagogikasi manbalari-maqol, rivoyat ertaklar va boshqalarga har tomonlama ta'sir ko'rsatgan. O'sib kelayotgan avlodning tarbiyasi va ijtimoiy jarayonlarga maqsadlashuvda bilim, unga munosabat maqsadasi doimiy muammo hisoblanadi. Bu muammo zamonaviy sharoitda yanada keskin ko'rinish kasb etmoqda. Bir tomondan iqtisodiy hayotda ro'y berayotgan jarayonlar shunga olib keldiki, bilim siz odamlar katta pul topadigan bo'lishdi. Ularning topganlari bilan ziyolilarning maoshini tenglashtirib bo'lmaydi. Buning ham maqsad yoshlarda bilim olishga qiziqish pasayishiga sabab bo'ldi. Ularga bilim olish moddiy va ma'naviy maqsaduvaffaqiyat garovi bo'lib tuyulmayapti. Boshqa tomondan esa bozor munosabatlari va unga bog'liq bo'lgan texnikaning doimiy yangilanishi, korxonalar orasidagi raqobat, ishsizlik yoshlardan faqat chuqur bilimlar, balki ularning doimiy yangilanishini ham talab qiladi. Yoshlarning bilim olishida Qur'on tayanch bo'lishi mumkin. Ma'lumki, Qur'onda "ilm" so'zi 750 marta uchraydi. Agar Qur'on 780000 so'zdan iboratligini inobatga olsak, "ilm" so'zi maqsaduvaddas kitobning maqsadlum qismini

tashkil qilishi ma'lum bo'ladi. Qur'on inson bilim larini ikkiga ajratadi- diniy va dunyoviy. Diniy bilim lar-dunyo asoslarini, dunyo yaratilishini bilish. Bilim ning bu turi inson etishishi mumkin bo'lgan eng oliy cho'qqidir. Bu m asalaga qisqa to 'xtalib o'tsak. Qur'onda inson ega bo'lgan dunyoviy bilim haqidagi oyatlarni uchratasiz. U badanning uch a'zosi-ko'z, quloq va yurak bilan qo'lga kiritildi. Bilimning holatlaridan tashqari Qur'on uning rivojlanishining dialektik, dinam ik jarayonini va inson tom onidan o'zlashtirilishini ham qayd etadi. Abdulla Avloniy ham o'z asarlarida tarbiyaga tarif berib shunday deganlar "Tarbiya – "Pedagogika", ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtdan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga "yaxshi xulq" degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur. Zeroki, «Hassinu axloqiko'm» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg'a amr o'linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadur. "Tarbiya shunday narsaki ota ona unga masuldir. Abdulla Avloniyning fikricha uy tarbiyasini onadan ,pul tarbiyasini otadan olishi lozimligi aytilgan.

Qadriyatlarning shakllanish makoni bo'lgan oila va unga xos bo'lgan qadriyatlar tizimi jamiyatning kelajagini belgilab beradi. Kelajak avlod haqida qayg'urish, sog'lom, barkamol naslni tarbiyalab yetishtirishga intilish bizning milliy xususiyatimizdir. Bu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson o'z farzandlarining baxt-u saodati, fazl-u kamolini ko'rish uchun butun hayoti davomida kurashadi, mehnat qiladi.Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf odatlarimizni sayqallaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllarqanday shaxs bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar

bola zuvalasini shakllantiradi. Mustaqil Respublikamiz Konstitutsiyasining XIV bobi Oilaga bag'ishlangan bo'lib, o'zbek oilasi va munosabatlariga doir barcha masalalar to'raligicha hamda asosli huquqiy himoyani o'zida mujassam etgan.

Konstitutsiyada o'zbek oilasining shakllanishidan boshlab tomonlarning teng huquqliligi, nikoh tuzishdagi erkin roziliklari, ota-onalar tomonidan bolalarning ta'minoti va tarbiyasi, farzandlar tomonidan o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilish kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Shuni g'urur va faxr bilan ta'kidlashimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi 66- moddasida: "Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar", – deb ko'rsatilishi aynan milliy qadriyatimizning qonunda aks etishidir.

Xulosa qilib aytganda, oila – inson tarbiyasining ilk va eng muhim makoni hisoblanadi. Tarbiya va ilm bir-birini to'ldiruvchi asosiy omillar bo'lib, ularning uyg'unligi insonni nafaqat bilimli, balki axloqiy yetuk shaxsga aylantiradi. Dinda oila muqaddas, farzand esa ota-onaga berilgan aziz omonatdir. Shu bois, har bir ota-ona va jamiyat farzandlarni to'g'ri tarbiyalash, ularni bilimga va ma'naviyatga yo'naltirishga mas'uldir. Faqatgina ilm va tarbiya uyg'unligi jamiyatning barqarorligi, yosh avlodning kamoloti hamda mamlakatimizning kelajagi uchun kafolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.1059-сон 31.12.2019. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi
2. A.A. Axmedov. Ijtimoiy pedagogika (O'quv qo'llanma) "KAMOLOT" nashriyoti.- Buxoro- 2023
3. Oila pedagogikasi. darslik "Aloqachi" nashriyoti TOSHKENT-2007